

**BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLİYAVIY HISOBOTLARNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA AHAMIYATI**

**Toshtemirov Muhammad**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

**Obidov Raxmonali Rasulovich** dotsent,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda moliyaviy hisobotlarning mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va rivojlanishidagi, hamda mamlakatning iqtisodiy holatini yuqori pog'onaga ko'tarishidagi ahamiyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliya, moliyaiy hisob, moliyaviy hisobotlar va ularning ahmiyatligi.

**Abstract:** In this thesis, the importance of financial reports in the growth and development of the country's economy, as well as in raising the country's economic status to a higher level, is mentioned.

**Key words:** Finance, financial accounting, financial statements and their importance.

**Аннотация:** В данной тезис отмечается значение финансовых отчетов в росте и развитии экономики страны, а также в поднятии экономического статуса страны на более высокий уровень.

**Ключевые слова:** Финансы, финансовый учет, финансовая отчетность и их значение.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatining boshlang'ich yillaridanoq yurtimizning iqtisodiy holatini yaxshilash va jahon hamjamiyatining oldidagi nufuzini ko'tarish uchun harakatni boshlab yubordi. Buning isboti o'laroq biz "Harakatlar strategiyasining" besh ustuvor yo'nalishidan biri "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish" yo'nalishini misol qilishimiz mumkin. Moliyaviy hisobotlar haqida so'z ketar ekan, Shavkat Mirziyoyevning 24.02.2020 dagi PQ-4611 sonli qarorini eslatib o'tish lozimdir. Bu qarorda, prezidentimiz moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish haqida bir qancha ko'rsatmalar bergan edi.

Iqtisodiyot tushunchasiga turli xil ta'riflar berib o'tilgan. Umumiy ma'noda iqtisodiyot bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasidir. Umuman olganda, u tanqis bo'lgan resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi. Muayyan iqtisodiyot - bu asosiy omillar sifatida uning madaniyati, qadriyatlarini, ta'limi, texnologik evolyutsiyasi, tarixi, ijtimoiy tuzilishi, siyosiy tuzilishi, huquqiy tizimlari va tabiiy resurslarini o'z ichiga olgan jarayonlar to'plamidir. Bu omillar ma'no-mazmunni beradi va iqtisodiyot sharoit va parametrlarni belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy soha — bu o'zaro bog'liq

bo'lgan inson amaliyotlari va operatsiyalarining ijtimoiy sohasi bo'lib, u bir necha sohalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu o'rinda moliya ham iqtisodiyot so'ziga sinonim so'z bo'lib ularning ma'nosi nisbatan yaqin. Umumiy ma'noda moliya bu bir davlat, korxonalar, yoki shaxsning pul mablag'lari yoki resurslarni boshqarish va ularga oid moliyaviy masalalarni o'rganish, hisob-kitobni boshqarish, va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tizim yoki sohasidir.

Mamlakatning moliyasi va iqtisodiyoti rivojlanishi va yangi marralarni zabt etishi jarayonida moliyaviy hisob ishlari va moliyaviy hisobotlar juda ham muhim o'rin tutadi. Moliyaviy hisobotlar deganda biz bir tashkilot yoki korxonaning moliyaviy holatini, faoliyatini va natijalarini ifodalovchi rasmiy hujjatlarni tushunamiz. Bu hisobotlar, moliyaviy ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, amaliyotlar haqida ma'lumot berish va boshqa shakllarda moliyaviy transparensiyani ta'minlash uchun ishlatiladi.

Moliyaviy hisobotlar O'zbekistonda MHT (milliy hisob tizimi) da 4 xil shakldagi ma'lumotlardan iborat.

1. Buxgalteriya balansi.
2. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot.
3. Pul oqimlari to'g'risida hisobot.
4. Xususiy kapital to'g'risida hisobot.

O'zbekistonda buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Bu qonun 13.04.2016 da imzolaniib 14.04.2016 dan O'zbekiston Respublikasida kuchga kirgan,

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlari mamlakat iqtisodiyotida juda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Birinchi muhim jihat bu shaffoflik va ishonch: Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar, korxonalarining moliyaviy faoliyatini ochiq va sodda ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Bu ma'lumotlar transparensiya niqobini yaratadi va ishonch hosil qiladi, shuningdek, tashkilotlar va davlat organlarining moliyaviy holatini to'g'ri va aniq ko'rsatib beradi.

Ikkinchidan rivojlanish va boshqaruv uchun muhim sanaladi: Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar, moliyaviy boshqaruvning samarali amalga oshirilishida katta o'rin egallaydi. Ular moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, daromadlarni hisobga olish, xarajatlar va soliq to'lovlarni boshqarishda yordam beradi. Uchinchidan investitsiyalar va to'lovlar : Moliyaviy hisobotlar, investitsiyalar va to'lovlar bo'yicha muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Bu ma'lumotlar investitsiyalar olish, moliyaviy strategiyalar belgilash va moliyaviy faoliyatni yaxshi boshqarishda yordam beradi. Mamlakat chetdan investitsiya va mablag'lar jalb qilishda aniq ma'lumotlar taqdim etishi zarurdir. Keyingi muhim jihat moliyaviy nazorat: Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar, moliyaviy nazoratni oshirishda muhim vazifalarga ega. Ular moliyaviy risklarni tushunish, moliyaviy nazorat va inspeksiya qilish va qonunlar va shartlar bo'yicha to'lovlar to'g'risida ma'lumotlar berishda yordam beradi. Eng muhim ahamiyatlaridan biri esa iqtisodiy rivojlanish va soliq siyosati uchundir: Moliyaviy hisobotlar, iqtisodiy rivojlanish va soliq siyosati belgilanishida muhim o'rin o'ynaydi. Ular moliyaviy daromad va xarajatlar, soliqning

to'lovi, xalqaro soliqlar, investitsiyalar va boshqa moliyaviy faktorlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadi. Moliyaviy hisobotlar mamlakatdagi fiskal siyosat uchun juda muhimdir, chunki soliqlar shularga qarab belgilanadi. Keyingi muhimlik biznesga qarshi tashkilotlar va investitsion rejalar uchundir: Moliyaviy hisobotlar, biznesga qarshi tashkilotlar va investitsion rejalar bilan moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishda yordam beradi. Ular o'z vaqtida moliyaviy maqsadlarni ko'rish va real xalqaro standartlarga mos kelishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda , mamlakat iqtisodiyotida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar katta ahamiyatga ega va yuqorida ularning misol qilib keltirilgan qatorlarini ko'rib chiqdik. Ular moliyaviy transparensiyani ta'minlash, moliyaviy boshqaruvni samarali olib borish, iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalar uchun ma'lumotlar taqdim etish va biznes va investitsion faoliyatlarida ishonch yaratishda katta o'rin egallaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning PQ-4947 va PQ-4611 qarorlari. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. "Principles of Economics" by N. Gregory Mankiw, 9<sup>th</sup> chapter
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-son
4. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonun.